

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH - TARAQQIYOT OMILI

Xasanova Nigora Nizomovna,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat
markazi musiqa madaniyati metodisti
Email: nigorax@554gmail.com
Telefon: +99897 436-06-27

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishning ahamiyati, xususan, interfaol usullar orqali o'quvchilarning musiqa faniga bo'lgan qiziqishi, ijodiy tafakkuri va estetik didi rivojlanishi, musiqiy asarlarni tinglash, tahlil qilish va ijro etish jarayonida faol ishtirok etishi ta'minlanishi tahlil qilingan.

Shuningdek, "Aqliy hujum", "Klaster", "Rol o'ynash", "Insert", "Debat", "Chapak va qo'shiq o'yinlari", "Savol-javob zanjiri", "Mini-konsert" kabi interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Interfaol metod, ijodkorlik, ijro etish, musiqa madaniyati, musiqiy tafakkur, zamonaviy pedagogik yondashuv.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ – ФАКТОР РАЗВИТИЯ

Хасанова Нигора Низомовна,

Методист по музыкальной культуре

Джизакского областного центра педагогического мастерства

Email: nigorax@554gmail.com

Телефон: +99897 436-06-27

Аннотация

В данной статье анализируется важность организации уроков музыкальной культуры в общеобразовательных школах на основе интерактивных методов, в частности, развитие у учащихся интереса к музыке, творческого мышления и эстетического вкуса посредством интерактивных методов, а также их активное участие в процессе слушания, анализа и исполнения музыкальных произведений.

Также даны практические рекомендации по использованию интерактивных методов, таких как “Мозговой штурм”, “Кластер”, “Ролевая игра”, “Инсерт”, “Дебаты”, “Игры с хлопками и песней”, “Вопросно-ответная цепочка”, “Мини-концерт”.

Ключевые слова: *Интерактивный метод, творчество, исполнение, музыкальная культура, музыкальное мышление, современный педагогический подход.*

USE OF INTERACTIVE METHODS IN MUSIC CULTURE LESSONS - A DEVELOPMENT FACTOR

Khasanova Nigora Nizomovna,

Musical Culture Methodologist

of the Jizzakh Regional Pedagogical Skills Center

Email: nigorax@554gmail.com

Phone: +99897 436-06-27

Annotation

This article analyzes the importance of organizing music culture lessons in secondary schools based on interactive methods, in particular, the development of students' interest in music, creative thinking and aesthetic taste through interactive methods, and their active participation in the process of listening, analyzing and performing musical works.

Also, practical recommendations are given on the use of interactive methods such as “Brainstorming”, “Cluster”, “Role Playing”, “Insert”, “Debate”, “Clap and Song Games”, “Question and Answer Chain”, “Mini-Concert”.

Keywords: *Interactive method, creativity, performance, musical culture, musical thinking, modern pedagogical approach.*

Musiqa – ruhni tarbiyalovchi san’atdir.

Konfutsiy

Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarning musiqa faniga qiziqishi, estetik didi va ijodkorligini shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish samarali natija beradi.

Ta'kidlash joizki, yosh avlodning har tamonlama yetuk va komil inson bo'lib kamol topishi tarbiya tizimining qanday olib borilishiga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, interfaol metodlar o'quvchining dars jarayonidagi faolligini oshiradi, musiqiy asarlarni tinglash va tahlil qilishda mustaqil fikrlashini shakllantirish bilan birga quyidagi afzalliklarga ega:

- musiqaga qiziqish va mehr uyg'otadi;
- ijodiy tafakkurni rivojlantiradi;
- guruhda hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;
- tinglash, ijro etish va baholash jarayonida faollikni oshiradi.

Musika madaniyati darslarida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchida hayotga muhabbat hissini oshirish, o'rganilgan bilimni amaliyotga tatbiq etish hamda kelgusida yaxshi natijalarga erishishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ba'zi faollikni oshiruvchi interaktiv metodlar haqida qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz.

1. **“Aqliy hujum”** – berilgan musika asari haqida o'quvchilarning fikrlarini yig'ish va umumlashtirishga yordam beradi.

Qo'llash va kutilayotgan natija: Dars boshida o'quvchilarga savol beriladi: ***Musika bizning hayotimizda qanday o'rin tutadi?*** O'quvchilar o'z fikrlarini tezkor aytadi, o'qituvchi ularni yozib boradi. Bu usul musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirishga, bilimlarni mustahkamlashga va yangi bilimlarni egallashga yordam beradi, eng muhimi, darsga kirish samarali bo'ladi.

2. **“Klaster” (tarmoqlash)** – musiqiy janrlar yoki cholg'u asboblari haqida tushunchalarni sxematik tarzda tasvirlash.

Qo'llash va kutilayotgan natija: ***“O'zbek xalq cholg'ulari”*** mavzusi doska markaziga yoziladi va yozuv atrofida nay, rubob, doira, surnay va dutor kabi milliy cholg'ular nomi yoziladi yoki rasmi chiziladi. O'quvchilar milliy cholg'ular haqida

qisqacha ma'lumot beradi. Bu usul o'quvchilarga o'tilgan mavzuni to'laqonli tushunish imkonini beradi.

3. **“Rol o'ynash”** – mashhur bastakor, xonanda yoki sozanda obraziga kirib ijodiy chiqish qilish.

Qo'llash va kutilayotgan natija: O'quvchilar darslikda berilgan mashhur bastakor, kompozitor, sozanda yoki xonanda obraziga kiradi. Masalan, biri – Yunus Rajabiy, boshqasi – Lyudvig van Betxoven timsolini gavdalantirgan holda chiqish qiladi. Bu usul o'quvchilarda milliy va jahon musiqa merosini chuqurroq o'rganish, yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, kreativlikni oshirish va ijodkorlik orqali o'z qobiliyatini namoyon etish imkonini yaratadi.

4. **“Insert”** – Yangi mavzu yoki tinglash uchun berilgan musiqa asarini o'rganish jarayonida belgilar orqali fikr yuritish.

Qo'llash va kutilayotgan natija: Tinglangan qo'shiq yoki o'qilgan matnga belgi qo'yish orqali ishlanadi:

“√” – bildim;

“+” – yangi ma'lumot;

“–” – tushunmadim;

“?” – qo'shimcha bilmoqchiman.

Bu usul orqali o'quvchilar bilimini oshirish va bilimida aniqlangan bo'shliqni to'ldirishda yaxshi samara beradi.

5. **“Debat”** – ikki xil musiqiy yo'nalish masalan, xalq musiqasi va zamonaviy estradani taqqoslab bahslashish orqali mavzuga oid bilimlarni oshirishga yordam beradi.

Qo'llash va kutilayotgan natija: Guruhlar ikki xil musiqiy yo'nalishni himoya qiladi.

- ❖ Masalan: *xalq musiqasi* va *estrada musiqasi haqida ma'lumot to'planadi*.
- ❖ Har bir guruh o'z yo'nalishini dalillar bilan asoslaydi.
- ❖ O'quvchilarda tahliliy fikrlash va taqqoslash ko'nikmalari shakllanadi.

6. “Chapak, nota va qo'shiq o'yinlari” – ritmni sezish va musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishda amaliyotga tadbqiq etiladi.

- O'qituvchi ritmik chapak chaladi, o'quvchilar uni takrorlashadi.
- So'ngra notalar asosida kichik ritmik mashqlar bajariladi.
- Bu usul musiqiy eshituv va ritm tuyg'usini rivojlantiradi.

7. “Savol-javob zanjiri”-juftliklarda ishlash, bir-birini bilimini to'ldirish va yangi bilimga ega bo'lish imkonini beradi.

Qo'llash va kutilayotgan natija: Birinchi o'quvchi savol beradi, ikkinchisi javob beradi, so'ngra yana 1-o'quvchi savol beradi. Savol-javob shu tarzda davom etadi.

- ✓ Namuna: *Rubob qanday cholg'u? → Torli cholg'u → Torli cholg'uga yana qaysilar kiradi? → Rubob, dutor...*
- ✓ O'quvchilar tomonidan o'tilgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni taqdim etish jarayonida mustaqil fikrlash va fikrni erkin bayon etish ko'nikmasini shakllantirish, tanqidiy fikrlash va o'z fikrini asoslash, kreativlikni namoyon qilishda samarali hisoblanadi.

8. “Mini-konsert”

- Guruhlarga bo‘linib, kichik qo‘shiq yoki cholg‘u asarini ijro etish topshirig‘i beriladi.
- Sinf oldida chiqish qilish orqali ishonch va ijodiy faollik ortadi.
- O‘quvchilarda vatanparvarlik, o‘zaro hurmat, shaxsiy rivojlanish va yashirin iste’dodni yuzaga chiqarishda erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa madaniyati darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning musiqiy tafakkuri, ijodiy qobiliyati va estetik didini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol usullar dars jarayonini jonli, mazmunli va samarali tashkil etishga yordam beradi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va musiqiy merosga mehr qo‘yish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qo‘llanilgan metodlar ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash hamda milliy va jahon musiqiy merosini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Fan va texnologiya. – Toshkent: 2016.
2. Begmatov S. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan nashri. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: 2017.
3. Jalolova M. Umumiy o‘rta ta’limda musiqa ta’limining mazmuni va metodlari. Fan. – Toshkent.: 2018.
4. Rasulova D. Interfaol metodlar: nazariya va amaliyot. Ilm ziyo. – Toshkent: 2020.
5. Xasanova N.N. O‘zbek milliy musiqasi tarixidan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda bolalar musiqa va san’at maktablari uchun uslubiy qo‘llanma. “TURON-IQBOL” – Toshkent: 2020.

6. Xasanova N.N. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish. Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun o'quv-metodik qo'llanma. Bookmany print. – Toshkent: 2024. 12 b.